

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION MENEJMENT, UNING FUNKSIYALARI VA USULLARI

Sayfitdinov Nodir Bektoshovich

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim  
tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassis

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11195886>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion menejment, uning funksiyalari va usullarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье описывается инновационный менеджмент в системе дошкольного образования, его особенности и методы.

**Kalit so'zlar.** Kompetentsiya, kompetentli, inklyuziv, shaxs, menejment, refleksiv, interfaol va axloqiy-etik.

**Ключевые слова.** Компетентность, компетентность, инклюзивность, личность, управление, рефлексивность, интерактивность и морально-этичность.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga tobora ko'proq talablarni qo'yimoqda, lekin boshqaruvdek muhim sohada direktorning mahorati eng kuchli talab hisoblanadi. Ta'lim darajasini oshirish asosan ta'lim tashkiloti direktorining ta'lim sifatini rivojlantirishdan manfaatdorligi, vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini his etishi va kerakli vaqtda boshqaruv faoliyatiga o'zgartirish kiritishi bilan bog'liq.

Ta'lim tashkilotining yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga yo'naltirilganligi boshqaruvning tegishli darajasiga qo'yiluvchi bir qator talablarni ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda yangi yondashuvlarga asoslanib, zamonaviy direktor layoqatli mutaxassis fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, yuqori professional muloqot madaniyati va axloqiy-etik me'yorlarga ega bo'lishi kerak.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida turli xil maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud, takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar va usullar yuzaga kelib, amalda qo'llanilmoqda, innovatsion faoliyat ommalashmoqda. Asosan maktabgacha ta'limning yo'nalish va talablari o'zgartirilmoqda. Aynan shuning uchun ta'lim muammolarini zamonaviy darajada hal eta oluvchi yangi avlod direktori zarur.

Yangi turdagi direktor jamoa bilan ishlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishi, ularning qobiliyatlari, shuningdek ehtiyojlari va kasbiy talablarini hisobga olishi kerak. Direktor uchun xodimlarning tashabbusini ma'qullash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shish, shuningdek, har bir xodimini harakatga unday olishi muhimdir. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik ta'sir ko'rsatish uslublariga ega, bundan tashqari boshqaruv mahoratini biluvchi mutaxassis zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining zamonaviy direktori ish jarayonida bajaruvchi juda ko'p vazifalar ro'yxati mavjud. Boshqaruv vazifalari ro'yxati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Pedagog kadrlar tarkibining sifatini boshqarish. Bu vazifa pedagog kadrlar soni va ularning tarkibini belgilash sifatida tushuniladi, shu bilan birga mazkur vazifa malaka oshirish tizimi, jamoaviy ishni tashkil qilish va mehnatga haq to'lash tizimini o'z ichiga oladi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya sifatini boshqarish.
- Ta'lim texnologiyasi sifatini boshqarish. Zamonaviy ta'lim tizimida turli xil ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish muhim o'rin tutadi.

- Moddiy-texnik boshqaruv sifatini boshqarish, jihozlardan foydalanish va o'quv xonalarini taqsimlashni o'z ichiga oladi.
  - Ta'lim infratuzilmasi sifatini boshqarish.
  - Axborot-uslubiy ta'minotni boshqarish qidiruv jarayonlarini tartibga solish va muhim ma'lumotlarni tahlil qilish, bilim olish uchun eng samarali uslubiy sxemalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.
  - Ta'lim dasturi sifatini boshqarish, o'quv rejasi, tadbirlarni tashkil etish va malaka talablarini qamrab oladi.
  - Huquqshunoslik vazifasi direktor o'z ishida qonunlarni bilishi va qo'llay olishi, butun jamoaning huquq va burchlarga rioya etishini tashkil qilishni anglatadi.
  - Psixolog-vositachining vazifasi shundan iboratki, direktor nafaqat jamoada, balki ota-onalar va bolalar o'rtasida ham o'zaro tushunish va ishonch muhitini yaratishi kerak. Jamoadagi nizolarni bartaraf etish qobiliyati maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining juda muhim vazifasidir.
  - Tashkiliy vazifa ma'lum bir tuzilmani, ichki tartibni yaratishni o'z ichiga oladi. Tashkiliy qobiliyatlar quyidagi fazilatlardan iborat: kasbiy kompetensiya, jamoatchilik, jamoada ishlash tuyg'usi, talabchanlik, faollik va maqsadga muvofiqlik.
  - Nazorat va faoliyatni muvofiqlashtirish, zaruratga ko'ra, nazorat paytida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ishda o'zgarishlar kiritilishini o'z ichiga oladi. Mazkur vazifa direktor talabchan, faol va tezkor bo'lishi kerakligini nazarda tutadi. Bu tashkiliy ko'nikmalarni namoyish etish direktorga jamoa faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish yondashuvlarini tahlil qilishga yordam beradi.
- Haqiqiy pedagog kadrning shakllanishi pedagog kadrning bolani tushuna olish qobiliyatidan boshlanadi. Agar pedagog kadr bolaning ma'naviy dunyosini tushunishga harakat qilmasa, u holda kelajakda u endi ta'lim va ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir ko'rsata olmaydi. Boshqaruv faoliyati jarayonida boshqaruvchida, albatta, turli xil muammolar uchraydi va u mazkur muammolarni samarali hal qilish darajasi orqali uning vakolat darajasini aniqlash mumkin. Boshqaruv vakolati rivojlanishi nafaqat o'z-o'zini rivojlantirish va boshqaruvchi faoliyatida tajriba orttirish, balki boshqaruvchining malakasini oshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining kasbiy qayta tayyorgarligiga bog'liq.
- Zamonaviy innovatsion jarayonlar juda murakkab va muqarrardir. Ular boshqaruvning istalgan sohasida rejalashtirishni takomillashtirish, boshqaruv organlarining tuzilishi va funksiyalari, kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish muhimdir.

### References:

1. M.A.Abdullayeva Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma 2020-y
2. Global Waste Management Outlook. United Nations Environment Programme, 2015; Marks, K. and Howden, D.